


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6587,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr nisbatan **5,4 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **851,2** mlrd. so'mni (**15,3 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5736,1** mlrd. so'mni (**9,4 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **986,3** mlrd. so'mni (**10,0 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 587,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **5,4 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,1 %** va yirik korxonalar hissasiga **12,9 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **25,5 %** ulush bilan **1680,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,1 %** ulush bilan **69,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
2019- yil yanvar-noyabr	2019- yil yanvar-noyabr	
2020- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **5736,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **9,4 %** ga oshdi . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,6 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,0 %), G'allaorol (98,0 %), Forish (97,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	6587348,1	105,4	851186,7	84,7	5736161,4	109,4
Jizzax sh.	1680848,2	104,1	343421,9	86,9	1337426,3	109,7
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	142190,9	109,7	2018,0	187,3	140172,9	109,0
Baxmal	1352380,5	103,0	419364,2	80,8	933016,3	117,5
G'allaorol	470919,8	106,9	9461,8	114,9	461458,0	106,8
Sharof Rashidov	895513,9	105,7	1906,6	151,7	893607,3	105,6
Do'stlik	208036,7	107,9	6537,7	117,2	201499,0	107,7
Zomin	798728,5	105,7	29413,3	120,6	769315,2	105,2
Zarbdor	204393,6	107,4	5437,6	143,0	198956,0	106,7
Zafarobod	107221,4	114,0	1914,8	174,9	105306,6	113,2
Mirzacho'l	168482,5	109,7	4572,7	121,4	163909,8	109,4
Paxtakor	257699,9	107,8	20363,5	55,9	237336,4	117,2
Forish	231221,6	109,2	5356,9	134,4	225864,7	108,7
Yangiobod	69710,6	108,1	1417,7	173,9	68292,9	107,3

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **15,3 %** ga kamaydi va **851,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,9 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 736,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **9,4 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,1 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,6 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,0 %), G'allaorol (98,0 %), Forish (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (20,4 %), Paxtakor (7,9 %), Baxmal (31,0 %), Zomin (3,7 %) va Do'stlik (3,1 %) tumanlarida kuzatildi.



**JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar - noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 730,3** ming so'm (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **3,2** % ga oshdi), barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**9 406,0** ming so'm), Baxmal (**8 602,9** ming so'm), Zomin (**4 846,7** ming so'm) va Sharof Rashidov (**4 024,8** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	4730,3	103,2
Jizzax sh.	9406,0	102,2
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	3084,4	108,2
Baxmal	8602,9	100,7
G'allaorol	2726,8	104,6
Sharof Rashidov	4024,8	102,8
Do'stlik	3161,7	106,1
Zomin	4846,7	103,4
Zarbdor	2357,5	104,7
Zafarobod	2140,1	111,9
Mirzacho'l	3240,0	107,4
Paxtakor	3445,2	105,8
Forish	2488,9	107,6
Yangiobod	2463,3	106,2


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **986,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **350,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **20,6 %** ga kamaydi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **636,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,9 %** ga kamaydi) .


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **350,0** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **636,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	986,2	90,0	350,0	79,4	636,2	97,1
Jizzax sh.	149,8	76,8	149,8	75,3	00	0
tumanlar:						
Arnasoy	35,3	91,7	6,1	68,9	29,2	98,5
Baxmal	192,4	143,4	27,6	215,3	164,8	135,8
G'allaorol	94,0	68,2	30,6	54,8	63,4	77,2
Sharof Rashidov	102,8	63,4	0	0	102,8	63,4
Do'stlik	50,5	122,1	18,1	72,8	32,4	196,9
Zomin	147,1	80,4	55,6	77,2	91,5	82,4
Zarbdor	60,4	108,6	8,0	85,9	52,4	113,2
Zafarobod	0	0	0	0	0	0
Mirzacho'l	23,5	71,2	9,5	93,2	14,0	61,4
Paxtakor	66,1	163,4	17,7	88,3	48,4	237,6
Forish	43,9	82,0	25,3	100,2	18,6	65,7
Yangiobod	20,4	94,8	1,7	62,9	18,7	99,2

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,9
mlrd. so'm

Tuzlamalar



139,9
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



10,8
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

56,5
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



21,3
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

22,0
mlrd. so'm



Tuxum

43,8
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

13,2
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

6,4
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

8,1
mlrd. so'm



Ziravorlar

24,1
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **350,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**139,9** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **636,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **471,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **151,1** mlrd. so'mni, otlar **11,0** mlrd. so'mni, parrandalar **2,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **105,5 mlrd.** so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **21,6 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	105549,6	78,4	105549,6	78,4
Jizzax sh.	53398,8	77,1	53398,8	77,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	695,1	83,3	695,1	83,3
Baxmal	1885,5	82,5	1885,5	82,5
G‘allaorol	6509,8	78,4	6509,8	78,4
Sh.Rashidov	18162,5	79,2	18162,5	79,2
Do‘stlik	3488,7	79,5	3488,7	79,5
Zomin	7254,6	78,8	7254,6	78,8
Zarbdor	2944,0	82,1	2944,0	82,1
Zafarobod	937,5	80,6	937,5	80,6
Mirzacho‘l	3729,9	82,0	3729,9	82,0
Paxtakor	3176,3	81,4	3176,3	81,4
Forish	2785,4	77,9	2785,4	77,9
Yangiobod	581,5	82,4	581,5	82,4

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 731,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **24,5 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **394,5** mlrd. so'mni (**57,8 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 336,6** mlrd. so'mni (**1,6 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangiobod (**120,7 %**), Baxmal (**149,0 %**) va Forish (**111,7%**) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Zomin (**97,0 %**), Yangiobod (**98,4 %**), Forish (**98,4 %**), Baxmal (**132,4 %**) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1731,5	75,5	394,9	42,2	1336,6	98,4
Jizzax sh.	948,6	72,5	195,6	36,0	753,0	98,4
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	11,3	31,0	8,2	24,6	3,1	98,7
Baxmal	124,3	132,4	94,0	149,0	30,3	98,3
G‘allaorol	42,1	94,8	0,7	30,0	41,4	98,6
Sh.Rashidov	117,9	77,9	10,3	24,6	107,6	98,2
Do‘stlik	79,2	67,0	10,9	22,1	68,3	98,9
Zomin	180,0	97,0	4,4	63,1	175,6	98,3
Zarbdor	45,1	63,3	22,5	46,6	22,6	97,9
Zafarobod	29,1	55,7	16,8	42,4	12,3	97,8
Mirzacho‘l	19,6	33,3	15,1	27,9	4,5	98,8
Paxtakor	31,8	45,9	15,8	29,9	16,0	97,6
Forish	93,6	98,4	0,4	111,7	93,2	98,3
Yangiobod	8,9	98,4	0,2	120,7	8,7	97,9

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- noyabr oylari yakuniga ko'ra, **1 336,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan **1,6 %** ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **77,2 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Forish (**99,6 %**), Yangiobod (**97,2 %**), G'allaorol (**98,2 %**), Zomin (**97,5 %**), Sharof Rashidov (**91,3 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Mirzacho'l (**22,8 %**), Baxmal (**24,4 %**), Arnasoy (**27,6 %**) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26